



OILA-TURMUSH DOIRASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORINING O'RNI

**Utepv Dilmurod
Sheralievich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta
o'qituvchisi, podpolkovnik*

**Musayev Dilshod
Xamidovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi 309-guruh kursanti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi sodir etiladigan jinoyatlarni tushunchasi va mazmunini, kriminologik adabiyotlarda ko'rsatilgan oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik tahlili, rashk bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini ko'rsatib o'tib, uning profilaktikasi yuzasidan o'z fikr mulohazasini bildirib o'tgan.

Kalit so'zlar: oila turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar, rashk, tan jarohat yetkazish, rashk zamirida odam o'ldirish, "men" obrazi, jamoatchilik ishtiroki.

Annotation: In this article, the concept and content of the crimes committed in the prevention of family-marital relations, the analysis of family-marriage offenses shown in the criminological literature, the causes and conditions of crimes related to jealousy, and its prevention are discussed. zexpressed his opinion. Key words: offenses within family relationships, jealousy, physical injury, murder due to jealousy, "I" image, public participation.

Oila—jamiyatning asosini tashkil etuvchi qo'rg'on. U kishilik jamiyatida insoniy oriyat va nomusini anglash, shu tuyg'ularni sharaf va g'urur qadar idrok etishning hosilasi. Shunday bo'lgach, oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham, vatan erki va istiqlolning poydevori ham shuncha mustahkam bo'ladi. Oilaning mustahkamligi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, balki tashkiliy-boshqaruv omillari, xususan yetuk malakali mutaxassislar tayyorlash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Oila-turmush munosabatlari doirasidagi dastlab davlatimiz qonunchiligida ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik belgilangan. Ammo ba'zi notinch oilalar borki, jamiyatda o'rnatilgan qonun normalariga bepisandlik bilan qarab bunga e'tibor qaratishmaydi. Oila-turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlar va huquqbuzarliklar natijasida nafaqat muayyan shaxs jabrlanadi, balki u bilan birgalikda uning oila a'zolariga, ular o'rtasida ijtimoiy huquqiy munosabatlarga ham

zarar etkizaladi. Mazkur jinoyatlarning jabrlanuvchisi jinoyatchi shaxsning eri yoki xotini, farzandi yok ota-onasi yoxud yaqin kishilari bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda bunday jinoyatalar oqibatida butun bir oila yo'q bo'lib ketadi yoki oila a'zolari o'rtasida munoabatlar shunday darajada buziladiki, uni hech qachon avvalgi sog'lom hayotiga qaytarib bo'lmaydi. Oila-turmush munosabatlari bilamizki keng qamrovli soha. Bunda har tomonlama chuqur mulohaza qilib yechim topilmasa jamiyatda yemirilish yuzaga keladi. O'zi bunaqqa holatga olib keluvchi yetarli sabab va sharoitlarni o'rganib olishimiz lozim.

Bular quyidagilar:

- a) oila taraflarning tengligiga hamda o'zaro ishonchga asoslanmaganligi;
- b) taraflar o'zaro o'z vazifalarini kelishib olishmaganliklari;
- c) oilaning moddiy ahvoli yetarli emasligi;
- d) taraflarning bir-birlariga xiyonat qilishlari;
- e) rashk hissi kuchayib bir-birlaridan o'ch olishga intilishi;
- f) urning o'z rafiqasini bir jinsiy obyekt sifatida muomalada bo'lishi.

Biz, avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni o'rganib chiqishimiz hamda unga samarali yechim topishimiz zarur. Bunda biz qanday yo'l tutamiz degan savol tug'iladi. Shunda biz ularga yakka tartibdagi profilaktik chora tadbirlarni qo'llaymiz. Dastlab ular bilan profilaktik suhbat o'tkazamiz. Ularga o'zimizni tavsiyalarimizni beramiz. Zarur bo'lsa bu suhbatni amalga oshirishda xotin-qizlar masalari bo'yicha inspektor hamda jome' masjidning imomini ham hamkorlikka jalb etamiz. Ularga oila muqaddas ekanligini, uni qadrlash kerakligini, ham diniy, ham huquqiy jihatdan tushuntiramiz. Bu haqida esa tegishli hujjat(bayonnoma, dalolatnoma, tushuntirish xati)lar bilan rasmiylashtirib qo'yamiz. Bizni xatti-harakatimiz shunaqa mukammal bo'lishi kerakki, ular butun hayoti davomida boshqa murosasizlikka duch kelmasin.

Profilaktika inspektorlari oilada sodir etiladigan jinoyatchilikning oldini olishda va ularni sodir bo'lishiga olib keladigan quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratishlari lozim: 1)umumiy ijtimoiy omillar -ichkilikbozlik, o'z oilaviy burchini bajarmaslik, ijtimoiy foydali mehnatdan bo'yin tovlash, oilaviy ishonchsizlik, yashash sharoitining talabga javob bermasligi, moddiy yetishmovchilik. 2)maxsus omillar -shaxsning salbiy xususiyatlari, jabrlanuvchining salbiy xususiyatlari, oilaviy munosabatlarda qarindoshlarning keraksiz aralashuvi. Oilada erkaklarning o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qilishi ya'ni, oilada ayolni o'ziga qaram bo'lishi uchun unga salbiy munosabatda bo'lish hamda oiladagi barcha masalalar bo'yicha oilaning boshqa a'zolari fikrini rad etgan holda o'zi yakka holda qaror qabul qilishi va hal etishi va hokazo. So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali xotin-qizlarga nisbatan turli ko'rinishdagi zo'ravonlik, ruhiy va jismoniy tazyiqlar o'tkazilayotgani, ularni o'z joniga qasd qilish darajasiga olib borilayotgani bilan bog'liq nohush xabarlar ko'p tarqalmoqda. Bir narsa aniqki, ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari aslida bundan-da ko'p bo'lishi mumkin. Buni inkor eta olmaymiz. Chunki, o'zbek ayoli qanchalik qiynalsa ham, uni ijtimoiy tarmoqlar u yoqda tursin, hatto mahalla-ko'y, tanish-bilishlariga ham oshkor etishni istamaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 15 va 49 yoshidagi xotin-qizlarning 25 foizidan ko'prog'i hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duch

kelishadi. Ushbu zo‘ravonliklarning 33 foizi Janubi-sharqiy Osiyo hududiga to‘g‘ri kelmoqda. Qolaversa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda ham xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq normalar o‘z aksini topgan. Oilada sodir etilgan jinoyatchilikning oldini olish va yuqoridagi holatlarni bartaraf etishda mahalla hududida o‘z faoliyatini olib boruvchi profilaktika o‘rni va roli juda ham katta. Bularni profilaktika inspektorining har bir xonadon bilan “Oilaboy” ishlashi va profilaktika chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali oiladagi muommolarini hamkorlikda bartaraf etishida ko‘rishimiz mumkin.

Oilaturmush sohasida sodir etilayotgan jinoyatlar bilamizki, faqat er-xotin o‘rtasida emas balki, qaynona-kelin, ota yoki ona-farzand o‘rtasida ham sodir etilayotganiga hozirda ko‘p guvohi bo‘lyapmiz. Buni eshitganda kishining eti bir jimirlaydi. Chunki, biz o‘zbek mentalitetiga xosmikin bu holat deymiz. Bizning millatimiz dunyoga o‘zbek millati mehribon, mehmondo‘st, bolajon xalq deya dunyoga tanilganmiz. Nahotki bunaqa salbiy holatlar ham bo‘ladimi degan savol o‘z-o‘zidan tug‘iladi. Ming afsuski shunaqa. Bular uchun quyidagicha javobgarlik choralari keltirilgan:

- a) bolani tarbiyalash va ta‘lim berishga oid majburiyatlarni bajarmaslik(Mjtk 47-m);
- b) bolani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash(Mjtk 47⁵-m);
- c) ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash(Mjtk);
- d) ona o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi(Jk 99-m);
- e) yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetmaganni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash(Jk 122-m);
- f) bolani chet elda qarovsiz qoldirish(Jk 122¹-m);
- g) ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash(Jk 123-m).

Profilaktika inspektorining “Oilabay” ishlash tizimi orqali: har bir oiladagi mavjud muammolarni aniqlaydi; aniqlangan muammolar tegishli ma‘lumotlar bazasiga kiritiladi; mutasaddi tashkilotlarga muammolarni hal etish yuzasidan aniq vazifalar beriladi; oilalardagi muammolarni bartaraf etish choralari ko‘riladi; oiladagi salbiy muhitning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘radi; nizoli oila a‘zolarining yarashtirish choralari ko‘radi; oilalarda mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorligida profilaktik ishlarni amalga oshiriladi. Bunda har bir mahallada ishchi guruh tashkil etilishi lozim. Mazkur ishchi guruhning tarkibiga mahalla raisi(oqsoqoli), profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, soliq inspektori, ijtimoiy xodim kiritilishi kerak. Mahallada tashkil etilgan ishchi guruh a‘zolariga, oila turmush sohasida jinoyat keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan nizoli oilalar ro‘yxatlari Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlardan hamda oila-turmush sohasida ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ro‘yxatlari esa Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlardan olinadi. Ishchi guruh a‘zolari tomonidan nizoli oilalar ro‘yxatlari to‘liq o‘rganib chiqiladi. Ishchi guruh tomonidan nizoli xonadonga borilib, oilaning har bir a‘zosi bilan yakka tartibda individual shaklda aniq erkak va ayolga alohida-alohida nizoning oqibatida yuzaga keladigan salbiy holatlar bo‘yicha suhbatlashib, hayotiy misollar yordamida

tushuntiriladi. Nizoning tub mohiyatini, kelib chiqish sababi va aynan kim bilan ishlansa muammo hal etilishi bo'yicha xulosa to'ldiriladi va mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori va maktab psixologi tomonidan imzolanadi. Mazkur oilani xulosalar xavf tug'dirmaydigan (ya'ni to'g'ri yo'lga kirgan), xavf keltirib chiqarishi mumkin (ya'ni jinoyat sodir etishi mumkin) toifalarga ajratiladi. Olingan ro'yxatlar asosida xulosalar to'liq to'ldirilgandan so'ng xavf keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oilalar ro'yxati qayta shakllantiriladi. .

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Profilaktika inspektorining oilada sodir etiladigan jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda ularni bugungi kun talabidan kelib chiqib, yangi shakl va usullarni amalga oshirilishini belgilash hamda ushbu yo'nalishdagi profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рашк мақола Ҳасанхон Яҳё Абдулмажидманбаа: islom.uz сайти <https://islom.uz/maqola/8952>. Kriminologiya darslik Q.R.Abdurasulova TDYI. "Adolat" T.2007 151 bet elektron manba: <https://e-library.namdu.uz//Kriminologiya>. Abdurasulova Q.R.pdf.

3. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun –T.:, 2007. –316 b.

4. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. –O. To'raeva. –T., z –n.,-1990y.

5. Гурова А. "Диагностика психического развития детей".

6. Nishanova.Z.T.vab.Rivojlanish pedagogika va psixologiya-T. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. -515 b.

7. Ҳайитов, О., & Умарова, Н. (2001). Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари (шажаралар негизи мисолида). Т.: "TURON-IQBOL", 187.

8. Umarova, N. (2020). The Theoretical And Practical Model Of Making A Person Socializing Economically. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 62-68.Қаранг: Ўзбекистон Республикаси" Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги қонуни.

9.Ўзбекистон Республикаси "Ҳуқуқбузарликлар Профилактикаси тўғрисида"ги қонуни.